XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 31 - avgust VI-69-179-7-92-K/22 Oqdaryo tumani hokimligi

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 23-iyuldagi VI-66-156-7-92-K/22-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-, 119-, 126-moddalariga asosan 2022-yilda tuman mahalliy budjetining ijrosini sifatli yakunlash va bu borada hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarini kreditorlik qarzlar vujudga kelishini oldini olish maqsadida tuman mahalliy budjetidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-sonli qaroriga asosan maqbullashtirilgan mablag‘lari hisobidan jami 1,5 mlrd. so‘m mablag‘ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” PF-106-sonli Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’lim muassasalari agentligi tasarrufiga o‘tkazilgan tumandagi 57-sonli umumta’lim maktabini joriy ta’mirlash va jihozlash xarajatlari uchun ajratish to‘g‘risidagi tuman Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning taklifi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning bildirgi xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 23-iyuldagi VI-66-156-7-92-K/22-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi taklifi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning bildirgi xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning taklifi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning bildirgi xatiga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 23-iyuldagi VI-66-156-7-92-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2-sonli ilovaga qaytadan ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov) tuman mahalliy budjetining 2022-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (H.Ablaqulov) ajratiladigan mablag‘larni o‘z vaqtida belgilangan tartib bo‘yicha moliyalashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va investitsiyalar tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Qudratov Sh.**

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining
2022 yil 31 avgustdagi
VI-69-179-7-92-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetidan 2022-yil chegirib olingan mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag‘lar miqdori

T/r	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘mda)	Asos
1	Samarqand viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injiniring kompaniyasi (57-son maktab)	Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufiga o‘tkazilgan tumandagi 57-sonli umumta’lim maktabini joriy ta’mirlash va jihozlash xarajatlari uchun	1 500 000,0	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari E.Ashurovning 2022-yil 26-avgustdagi 02/04-242-sonli bildirgi xati hamda tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 26-avgustdagi 2/06-38/526-sonli xulosasi
	Tuman moliya bo‘limi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-sonli qaroriga asosan maqbullashtirilgan mablag‘	1 500 000,00	
	Jami:	**x**	**0,0**	